XALQ DEPUTATLARI SHO‘RCHI TUMANI KENGASHINING QARORI

Sho‘rchi tumani, Mustaqillik ko‘chasi 72-uy. 191500, tel.: (+99876) 457-45-73

2022 - yil 26 - dekabr VI-54-196-8-120-K/22 Sho‘rchi tuman hokimligi

Tumandagi ayrim qabristonlarning nomlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi 295-sonli O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 6-moddasiga asosan xalq deputatlari Sho‘rchi tumani Kengashi **qaror qiladi:**

1.Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 4-noyabrdagi 00945-son yig‘ilish bayoni ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2.Tumanda nomlari tasdiqlanayotgan qabristonlarning ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Tuman statistika bo‘limi (M.Sattarov), tuman qurilish bo‘limi (R.Turdiyev), Davlat kadastrlar palatasi Sho‘rchi tumani filiali (A.Allayorov), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (B.Mengboyev) tuman hokimligi bilan birgalikda nomlari tasdiqlangan qabristonlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4.Tuman qurilish bo‘limi (R.Turdiyev), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (B.Mengboev) hududlarda nomlari o‘zgartirilgan geografik

obyektlarga yangi nomlari yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

5.Mazkur qaror tuman hokimligi axborot xizmati (N.Shoyeva), “Jarayon” gazetasi tahririyati (B.Elmurodova)ga rasman e’lon qilinshi va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish tavsiya etilsin.

6.Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (D.Nazarov), xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (U.Sherxonov) zimmalariga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Xalq deputatlari tuman Kengashi raisi **Xudoyberganov B.X**

Xalq deputatlari Sho‘rchi tuman Kengashining
2022 yil 26 dekabrdagi
VI-54-196-8-120-K/22-son qaroriga
1-ilova

Surxondaryo viloyati Sho‘rchi tumanidagi ayrim qabristonlar nomlari

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Qabriston	Yangiobod MFY	Nomlanmagan	Shayitmozor	Shayitmozor - “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i Qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2.	Qabriston	Egarchi MFY	Nomlanmagan	Changal	Changal- “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i Qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3.	Qabriston	Oqtumshuq MFY	Nomlanmagan	Kapalibobo	Kapalibobo - “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i Qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4.	Qabriston	Yangiariq MFY	Nomlanmagan	Boytepa	Boytepa - “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i Qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.

5.	Qabriston	KattaSavur MFY	Nomlanmagan	Pardashahid	Pardashahid - “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i Qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
6.	Qabriston	Kakaydi MFY	Nomlanmagan	Qoqaydi	Qoqaydi - “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i Qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
7.	Qabriston	Oqkamar MFY	Nomlanmagan	Sovjiron-2	Sovjiron-2 - “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i Qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.